



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 11-aprel

94-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi “Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-132-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-son Farmonida belgilangan asosiy vazifalarni amalga oshirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi “Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-132-soni qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

a) Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirishning asosiy maqsadlari etib 16 ta tuman (shahar)da:

sanoat ishlab chiqarishi hajmi o‘rtacha 7-8 foizga, bozor xizmatlari hajmi 15-17 foizga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi hajmi 4-5 foizga barqaror o‘shishini ta’minlash;

ishsizlik darajasini 4-5 foizga, kambag‘allik darajasini 5-6 foizga pasaytirish, bunda Qo‘ng‘irot, Asaka, G‘allaorol, Denov tumanlari hamda Marg‘ilon shahrini ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish;

ular markazlarida aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratish belgilanganligi;

b) jadal kompleks rivojlantirish belgilangan tuman (shahar)larning 2025-yilga mo'ljallangan iqtisodiy o'sish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlari hamda tuman (shahar)larni 2025-2026-yillarda jadal kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R. Sulaymonov, E. Kamolov, S. Hikmatov, E. G'affarov, J. Xodjayev), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (N. Atajanov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (D. Nishonov) Xatirchi tumani hokimligi (U. Adizov) bilan birgalikda bir oy muddatda aholi va tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida Xatirchi tumani mahalliy boshqaruv organlarini xatlovdan o'tkazib, ularni bir joyda joylashtirish bo'yicha loyiha konsepsiyasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

4. Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R. Sulaymonov, E. Kamolov, S. Mirzayev) viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (A. Niyozov), viloyat turizm boshqarmasi (K. Normamatov) bilan birgalikda:

2025-yil 1-iyulga qadar Dastur doirasidagi tuman (shahar)lar markazlarining ishlab chiqilganiga 10 yildan ortiq muddat bo'lgan bosh rejalarini 3 ta toifadagi (renovatsiya, rekonstruksiya va konservatsiya) zonalarga ajratib, soddalashtirilgan tartibda hamda aholi va tadbirkorlar takliflarini inobatga olgan holda yangilangan bosh reja loyihalari;

bir oy muddatda Xatirchi tumani markazi va unga tutash hududlarda aholi va sayyohlarning yashashi, dam olishi va sayr qilishi hamda xizmatlar va boshqa yo'nalishlarda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan master reja loyihalari;

ikki oy muddatda Xatirchi tumanida turizm yo'nalishidagi master reja loyihalari ishlab chiqilishini yakunlab, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishini ta'minlasin.

Bunda bosh reja va master reja loyihalari tasdiqlangandan so'ng ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

5. Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R. Sulaymonov, E. Kamolov) viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'. Boboqulov), viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (A. Niyozov) bilan birgalikda:

2025-yil 20-iyungacha qadar barqaror iqtisodiy o'sish uchun foydalanilmagan yuqori imkoniyat va zaxiraga ega bo'lgan urbanizatsiya hududlarini tanlab, ularning ro'yxatini Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritsin;

2025-yil 20-oktabrga qadar 2026-yil ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa dasturlar asosida, shuningdek, davlat tashqi qarzi hisobidan amalga oshiriladigan infratuzilma loyihalarini qamrab oluvchi tuman (shahar) bo'yicha aniq rejalarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritsin.

6. Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R. Sulaymonov, S. Hikmatov) 2025-yil 1-iyulga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son Farmoni talablari asosida Dastur doirasidagi tuman (shahar)larda paxta va g'alla maydonlaridan tashqari bo'sh turgan yer uchastkalarini tanlab olib, kamida 500 gektardan yer maydonlarini elektron onlayn auksion savdolariga chiqarsin.

7. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R. Sulaymonov), Xatirchi tumani hokimligi (U. Adizov) bir hafta muddatda Dastur doirasida belgilangan Xatirchi tuman hokimligida huquqiy eksperiment tariqasida 2026-yil 1-yanvarga qadar "Aholi va tadbirkorlar manfaatlariga xizmat qilish" yangicha yondashuvi asosida Loyiha ofisi faoliyatini yo'lga qo'ysin.

Bunda tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi va kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi amaldagi shtatlari doirasida 3 nafargacha malakali xodimlar jalb qilinsin.

Loyiha ofisining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

Dastur doirasida amalga oshiriladigan loyiha (tadbir)larning tarmoq jadvallarini ishlab chiqish va har bir loyihaga mas'ullarni belgilash;

loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha tashabbuskorlarga ko'maklashish;

aniqlangan muammo va masalalarning yechimi bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va respublika darajasida hal etiladigan masalalarni hokimlik orqali vazirlik va idoralarga yuborish;

amalga oshirilayotgan ishlarni monitoring qilish va natijasi bo'yicha hokim huzurida muhokamalarni tashkil etish.

8. Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R. Sulaymonov, E. Kamolov, S. Hikmatov, E. G'affarov, J. Xodjayev, S. Mirzayev) 10 kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining 2.7-ilovasida nazarda tutilgan tadbirlarni Dastur doirasida Xatirchi tumanining kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturlarida inobatga olish bo'yicha xalq deputatlari mahalliy kengashlariga taklif kiritsin.

9. Belgilansinki, mazkur qaror ijrosi:

har oyda ikki marotaba Dastur doirasidagi tuman (shahar) hokimliklari tomonidan tegishli tuman (shahar) bo'limlari va tashkilot rahbarlari ishtirokida;

har oyda viloyat hokimligida tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilib boriladi.

10. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib viloyat hokimining o'rinbosarlari R. Sulaymonov, E. Kamolov, S. Hikmatov, E. G'affarov, J. Xodjayev, S. Mirzayevlar belgilansin.

11. Mazkur qaror ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



N.Tursunov